International

scientific and practical conference

DECEMBER 6
2024

2024



STDF

Science technology& Digital finance

Google Scholar

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions

MINISTRY OF HIGHER EDUCATION, SCIENCE AND INNOVATION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

JIZZAKH BRANCH OF THE NATIONAL UNIVERSITY OF UZBEKISTAN NAMED AFTER MIRZO ULUGBEK

Scientific journal of Science technology & Digital finance

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic

(December 6, 2024)

(Part 1)

Jizzakh-2024

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

The main directions of socio-economic development of New Uzbekistan: problems and solutions collection of materials of the international scientific and practical conference on the topic – Jizzahk: Department of economics and tourism of Jizzakh branch of the national university of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek, December 6, 2024, 450 pp.

Editors in charge: DSc.prof. Turakulov O.X., PhD. O'ralov A.I.

In the collection of materials of the conference, the role and role of Science, Education and production in the era of globalization, the pressing problems of the issues of interaction of these processes, feedback on their solutions were presented by mature specialists of the field.

In addition, research on the scientific and practical topic, carried out in the economics, Exact Sciences, Natural Sciences and socio-humanities during the globalization period, information is presented in the scientific and practical fields, which includes the latest innovative technologies in the fields of production.

It can be argued that this collection is one of the specific intersections of current thoughts and innovative ideas of the world of science. This scientific and practical conference was actively attended by professors and scientific researchers engaged in scientific research in Uzbekistan and foreign countries. In increasing the position of the scientific and practical conference, the professors and teachers of domestic and foreign higher educational institutions made a significant contribution.

Professors and teachers of foreign higher educational institutions who actively participated in the work of the conference made a worthy contribution to the high level of interaction with scientists of our country. The processes of international cooperation with foreign countries and exchange with them in the field of Science in the era of globalization have a positive effect on the development of Higher Education, the fields of Science and production. The materials of this conference are special in that they include a wide range of research, from theoretical developments to practical solutions, demonstrating the diversity of approaches and directions in this area.

In conclusion, it should be noted that this scientific and practical conference will be a very useful collection for everyone who is interested in modern research in the fields of further development of Higher Education, Science, Education and production in the era of globalization. The authors are responsible for the content and quality of the articles and abstracts included in the collection.

AHOLI TURMUSH DARAJASI VA DEMOGRAFIK JARAYONLARNI PROGNOZLASH



G‘aybullayev Sarvar
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetining Jizzax filiali

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda yurtimiz aholisining yashash tarzi, kundalik turmush harajatlarining jahon hamjamiyati bilan mutanosib ekanligini tekshirish, demografik jarayonlarning kechishida ro‘y beradigan o‘zgarishlarni aniqlash haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: turmush darajasi, turmush farovonligi, turmush tarzi, demografiya, prognozlashtirish, yashash mimimumi, aholi daromadlari.

Aholi turmush darajasini oshirish bozor iqtisodiyotining pirovard maqsadi va davlat ijtimoiy siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish vositasi bo‘lib yalpi ichki mahsulotning o‘sishi, makro va mikro darajada taqsimlash mexanizmini takomillashtirish hisoblanadi. Aholi turmush darajasini oshirish iqtisodiy o‘sishning natijasi hisoblanibgina qolmasdan, shuningdek, yalpi ichki mahsulot (YaIM)ni o‘sishining muhim omilidir.

Aholi turmush darajasini ifodalash uchun «aholi farovonligi», «yashash sharoitlari», «turmush tarzi», «turmush sifati» tushunchalari qo‘llaniladi. Aholi turmush darajasi sotsial iqtisodiy tushuncha bo‘lib, u kishilarning moddiy va ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojining qondirilishi hamda turmush sharoitining yaxshilanish darajasini tavsiflaydi. Moddiy ehtiyojlarga kishining oziq-ovqat, kiyim-kechak, turar joy, yoqilg‘i, maishiy va komunal xazmat ko‘rsatishni yaxshilash kabilarga bo‘lgan ehtiyojlar kiradi. Ma’naviy-ma’rifiy ehtiyojlarga kishilarning bilim malakasi va ma’naviy-ma’rifiy saviyasini oshirish, intellektual salohiyatini yuksaltirish kabilarga bo‘lgan ehtiyojlari kiradi . Turmush darajasi bitta ko‘rsatkich bilan emas, balki aholi daromadi va turmushining turli qirralarini ifodalovchi ko‘rsatkichlar tizimi bilan tavsiflanishi lozim. Bu tizim quyidagi asosiy guruh ko‘rsatkichlarini o‘z ichiga olishi lozim:

- umumlashtiruvchi sintetik ko‘rsatkichlar;
- aholining moddiy ehtiyojlarini qondirish darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;
- aholini ma’rifiy-ma’naviy darajasini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar;
- aholining ijtimoiy sharoitini tavsiflovchi ko‘rsatkichlar.

Bu ko‘rsatkichlar natural va qiymat ko‘rinishda ifodalanib, aholi turmush darajasining miqdor va sifat tomonlarini o‘zida aks ettiradi.

Aholi turmush darajasini dastavval qo‘yidagi ko‘rsatkchilar umumlashtirib ifodalaydi:

- aholi jon boshiga to‘g‘ri kelgan sof milliy daromad;

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

- nominal va real daromad indekslari;
- turmush qiymati indeksi;
- inson barkamolligi indeksi;
- qashshoqlik indeksi;
- aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi;
- yashash minimumi va boshqalar.

Aholi turmush darajasini o‘rganishda quyidagi vazifalar turadi:

1. shahar va qishloq aholisi turmush darajasini qiyosiy tahlil qilish va shu asosida shahar va qishloq o‘rtasidagi muhim tafovutlarni o‘rganishni dinamik ko‘rsatkichlarda aniqlash;

2. aholi daromadlari va xarajatlari tarkibini, ularni xarakterlovchi ko‘rsatkichlarni mohiyati va dinamikasini o‘rganish;

3. aholi daromadi va iste’molidagi differensiatsiyani o‘rganish, shu tafovutni qisqartirish yo‘llarini va unga ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirini aniqlash.

Aholining ijtimoiy turmush sharoiti - bu jamiyatning hamma a’zolariga mehnat qilish, dam olish, har tomonlama jismoniy va madaniy taraqqiyotni ta’minlash hamda mehnat qilish qobiliyatini saqlashni kafolatlash, vaqtinchalik ish qobiliyatini yo‘qotganlarni ijtimoiy jihatdan ta’minlash, pensiya va nafaqalar berish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Aholi turmush darajasini o‘rganishda vaktli qatorlarni qo‘llashdan asosiy maqsad vaqt bo‘yicha rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash va o‘lchashdir. Bunga vaktli qatorlarni tuzish va tahlil qilish vositasi orqali erishiladi.

Aholi turmush darajasini tavsiflovchi asosiy ko‘rsatkichlarga aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM, demografik va salomatlik ko‘rsatkichlari, ta’lim sifati, ish bilan bandlik, uy-joy, suv, gaz bilan ta’minlanganlik, oilaning rivojlanish darajasi, hayot xavfsizligini ta’minlash, budjetdan ijtimoiy ehtiyojlarga xarajatlar, aholining daromadlari bo‘yicha taqsimlanishi kabi ko‘rsatkichlar kiradi.

Aholi turmush darajasini oshirishda iqtisodiy integratsiyaning ahamiyati katta. Birlashgan Millatlar Tashkilotining ming yillik deklaratsiyasida aholi turmush darajasini oshirishning asosiy vazifalariga quyidagilar kiritilgan:

- Ochlik va o‘ta kambag‘allikni bartaraf etish;
- Hammaning boshlang‘ich ta’lim olishiga erishish;
- Bolalar o‘limini kamaytirish;
- Onalik muhofazasini kuchaytirish;
- Erkaklar va ayollar tengligi, ayollar huquq va erkinliklarini kengaytirish;
- SPID va boshqa xavfli kasalliklarga qarshi kurash;
- Ekologik barqarorlikni ta’minlash
- 1990 yildan boshlab BMT xisoblaydigan bu indeks turli mamlakatlarda turmush sifatining qiyosiy xarakteristikasini beradi.

Jahon bankining ma’lumotlariga qaraganda 177 mamlakatdan 55tasi ITIsi eng yuqori darajada rivojlangan, 85 mamlakat o‘rta darajada, qolgan 35 ta mamlakatlar rivojlanish darajasi bo‘yicha past bo‘lgan mamlakatlardir. Inson taraqqiyoti indeksining rivojlanish darajasi bo‘yicha mamlakatlar reytingi uch

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

tabaqaga bo‘linganda, eng yuqori daraja indeksi 0,8 dan 1,0 gacha bo‘lgan mamlakatlar: Norvegiya, Shvetsiya, Avstraliya, Kanada, Niderlandiya, Belgiya, AQSh, Yaponiya kabi 55ta davlat kiritilgan. O‘rta rivojlanish darajasiga indeksi 0,501 dan 0,796 gacha bo‘lgan 85ta mamlakatlarga: Bolgariya, Rossiya, Liviya, Malayziya, Qozog‘iston, Armaniston, Turkiya, O‘zbekiston, Tojikiston kabilar kiradi. O‘zbekiston ITI 0,756 koeffitsiyentga teng. O‘zbekistonda o‘rtacha yashash davomiyligi 72,5 yil bo‘lib, YeH a’zolaridan 9-11 yil orqada qolmoqda.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholi turmush darajasini rivojlatirishda modellarning birqancha tizimlaridan foydalaniladi. Ular yordamida aholi turmush darajasining turli tomonlari prognoz qilinadi. Ularga aholi daromadlari strukturasi, yakka tartibdagi iste’mol modellari va shu kabilar kiradi.

Aholi turmush darajasining rivojlanish istiqbollarini belgilash turli xil ko‘rsatkichlarni aniqlash va iqtisodiyotdagi ko‘plab murakkab o‘zaro bog‘liqliklarni bir necha nusxalarda hisoblab chiqishni talab qiladi. Bunday murakkab ishni faqat iqtisodiy matematik usullar yordamida, aniqrog‘i uning yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan xududiy rivojlantirish jarayonlarini modellashtirish yordamida amalga oshirish mumkin.

Aholini turmush darajasini modellashtirish deganda matematik ifodalar, tenglamalar, funksiyalar va boshqalar yordamida haqiqatda kechayotgan makroiqtisodiy jarayonlar, aholini turmush darajasini rivojlantirish jarayonlari modelini tuzishga va ularni ham statikada, ham dinamikada o‘rganishga tushuniladi.

Bu modellar:

– aholi iste’moli va talabi darajasini o‘sish sur’atlari va tarkibini;

– aholi iste’molini ma’lum bir miqdorga o‘sishiga xarajatlar sarfini hamda ulardan samarali foydalanishni ;

– aholi daromadi shakllanishining manbalarini;

– aholi daromadi va xarajati balansining maq’bul aloqalarini;

– aholi turmush darajasini rivojlantirish munosabatlari soxalardagi samarali davlat siyosatini va boshqalarni aniqlashda ishlatiladi.

Ko‘p bosqichli axoli turmush darajasini modellashtirish uchun hozirgi vaqtda faqat boshqarishning ba’zi umumiy tamoyillarini ko‘rsatish yoki uning ijtimoiy va gnoseologik xomaki taxminini keltirish mumkin.

Xuddi shunday axolini turmush darajasini modellashtirish xam rasman bayon qilib bo‘lmaydigan jarayon va juda ko‘p iqtisodiy axborotlardan tashkil topgan. Bu jarayonni EXM dan foydalanmasdan turib taxlil qilish, mutaxassislardan juda ko‘p vaqt va ma’lumot talab qiladi. Shu nuqtai nazardan axoli turmush darajasini imkon qadar kengroq yoritish uchun, modellashtirishning makroiqtisodiy statistika va imitatsion modellari orqali tizimli yondoshuvidan foydalananish lozim.

Xalq farovonligini aniqlovchi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy omil — bu, turmush darajasi bo‘lib, u kishilarning jismoniy, ma’naviy va ijtimoiy talablari darajasini xarakterlaydi. Ehtiyojlar xarakatini baholash masalasi ijtimoiy -iqtisodiy

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

jamiyat taraqqiyotini prognozlashda salmoqli o‘rin tutadi.

Turmush darajasini aniqlovchi rivojlanish talablarini taxlil qilish talablar tarkibida ularning taraqqiyotiga ta’sir etuvchi sezilarli omillarni aniqlash, sabab-oqibat va ehtiyojlar xarakati orasidagi bog‘lanishlarni xolis aks etgan omillarni o‘rnatish, o‘tmishdagi talab-ehtiyojlar o‘zgarishini tahlil qilish, ijtimoiy taraqqiyot va turmush darajasi bilan o‘zaro bog‘langan, prognozlanadigan ko‘rsatkichlarni aniqlash asosida olib boriladi.

Bu sohada prognozlashning asosiy maqsadi, eng avvalo, aholining kelajakdagi talab-ehtiyojlarini va ularni qondirish imkoniyatlarini aniqlashdan iborat. Masalan, yuqori sifatli va turli - tuman oziq-ovqat maxsulotlari, xizmat ko‘rsatish, uy-joy va boshqalar.

Kambag‘allikning mutlaq darajasini o‘lchashda Jaxon bankini tomonidan bir kishi xisobiga bir kunda Xarid qobiliyati pariteti bo‘yicha 1,25 dollar boshqa mezon bo‘yicha esa 2,15 dollar qilib belgilangan. Xozirgi dunyoda 1,4 mlrd.kishi ushbu chegarada yashamoqda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kambag‘allikni kamaytirish yo‘llari quyidagilardan iboratdir:

- Barqaror iqtisodiy usishni ta’minlash
- Ishlab chiqarish xajmini ortishi va ish xaqini usishi - Yangi ish joylarini ochish va bandlikni o‘sishi
- Aholi daromadlari taqsimlanishi noteksiligini pasayishi - Ta’lim sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish
- Inflatsiyani barqarorlashuvi.

Aholi daromadlari darajasini aniqlash va tarkibini o‘rganish uchun bir qator ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Birlamchi daromad, Uy xo‘jaliklarining ixtiyoridagi nominal daromadlari, uy xo‘jaliklarining tuzatish kiritilgan ixtiyoridagi daromadlari, uy xo‘jaliklarining real ixtiyoridagi daromadlari, o‘rtacha jon boshiga to‘g‘ri keladigan pul daromadlari, axolining shaxsiy ixtiyoridagi daromadlari, aholining real shaxsiy ixtiyoridagi daromadlari.

Iste’molning miqdori va tarkibi oqilona bo‘lib, kishilarning sog‘lom va uzoq umr ko‘rish, ularning shaxs sifatida kamol topishini ta’minlangandagina maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sirojiddin S. et al. SMALL BUSINESS AND PRIVATE ENTREPRENEURSHIP IS A PLACE TO PROVIDE EMPLOYMENT //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 115-119.
2. Akramovich N. A., Sarvar G., Yassim H. THE PLACE OF THE DIGITAL ECONOMY TODAY //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 95-99.
3. G’aybullayev, S. (2022). O‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO‘NALISHLARI

4. Bahrom X. et al. THE ROLE OF THE PRIVATE SECTOR IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 287-293.
5. G’aybullayev S. et al. RAQAMLI IQTISODIYOT RIVOJLANISHINING NAZARIY ASOSLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – C. 86-89.
6. Sarvar G. et al. FACTORS AFFECTING LABOR RELATIONS AND ITS WAGE //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 12. – C. 125-129.
7. G'aybullayev S. The place of the digital economy today //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 11. – C. 116-126.
8. G’Aybullayev Sarvar O. et al. O ‘ZBEKISTONDA ISTE’MOL SAVATCHASI HOZIRGI HOLATINI VA UNI SHAKILLANTIRISH YO ‘NALISHLARI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 4. – C. 119-125.
9. Sarvar O'ktam o'g G. et al. SYSTEMATIC-SITUATION APPROACH IN MANAGEMENT //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 11. – C. 999-1008.
10. Bahrom X. et al. O’ZBEKISTON VA AQSHNING IQTISODIY MUNOSABATLARI //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – C. 63-69.
11. G’Aybullayev Sarvar O. et al. FRANCHAYZINGNING BUGUNGI IQTISODIY JARAYONLARDAGI AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 16. – C. 116-120.
12. O‘G‘Li X. Y. K. et al. IQTISODIY JARAYONLARNI MODELLASHTIRISHNING BUGUNGI KUNDA MUHIM AHAMIYATI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 15. – C. 41-45.
13. Nodirbek X. et al. QO’SHILGAN QIYMAT SOLIG’INING AHOLI DAROMADLARIGA TA’SIRI //Talqin va tadqiqotlar ilmiy-uslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 16. – C. 121-126.
14. G’aybullayev S. THE ROLE OF MARKETING ACTIVITIES IN INCREASING THE POTENTIAL OF TEXTILE ENTERPRISES //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 7.
15. Гайбуллаев С., Пулатова М. Ish haqi va mehnat munosabatlari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 370-372.
16. Гайбуллаев С., Анорбоева Д. O ‘zbekistonda raqamli iqtisodiyotga o ‘tish muammolari //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 236-238.
17. Гайбуллаев С., Ярашева Г. Raqamli iqtisodiyotni hozirgi hayotimizdagi o ‘rni //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024

международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 270-273.
18. Гайбуллаев С., Норгозиев Д. Sport tizimining O ‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o ‘rni //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 286-288.
19. Гайбуллаев С., Давлатбоева С. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni bandlikni ta’minlashdagi o ‘rni //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 253-256.
20. Гайбуллаев С., Холикулов А. Raqamli iqtisodiyotning bugungi kundagi o ‘rni //Новый Узбекистан: успешный международный опыт внедрения международных стандартов финансовой отчетности. – 2022. – Т. 1. – №. 5. – С. 262-265.
21. Sarvar G. AHOLI ISTE’MOL DARAJASI SAMARADORLIGINI IQTISODIY STATISTIK BAHOLASH //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2023. – С. 130-136.

Department of Economics and tourism of Jizzakh branch of the National University of Uzbekistan named after Mirzo Ulugbek
6.12.2024